

**JADIDLAR FAOLIYATIDA YOSHLAR TARBIYASI
MASALALARI**

Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna

SamDPI instituti o'qituvchisi

[*n_mirzoyeva@gmail.ru*](mailto:n_mirzoyeva@gmail.ru)

Niyozova Fotima Baxtiyorzoda

SamDPI instituti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidlar harakatining asosiy maqsadlari, xususan yoshlar tarbiyasi va ma'rifiy islohotlar masalalari, shuningdek jadid namoyandalari- Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniylarning yosh avlodning dunyoqarashi, ma'naviy kamoloti va zamonaviy bilimlarni egallashdgi sa'y-harakatlari, ularning maktablar ochish, darsliklar yaratish, teatr va matbuot faoliyatini yo'lga qo'yishi haqida qisqacha keltirilgan.

Kalit so'z: jadidchilik ,ma'naviy tarbiya, milliy uyg'onish, Behbudiy, Ibrat, Munavvarqori, Avloniy, Cho'lpon, Qodiriy, jadid, mafkura, ta'lim-tarbiya, taraqqiyot.

Markaziy Osiyo va butun turkiy dunyoda jadidchilik harakatining boshlanishi Ismoilbek Gasprinskiy (1851–1914) nomi bilan bog'liqdir. U turkiy xalqlar orasida milliy uyg'onish, ma'rifat va zamonaviy g'oyalarining asosiy targ'ibotchisi hisoblanadik. Turkistonda jadidchilik — XX asr boshlarida yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik, madaniy va siyosiy islohotlar harakati bo'lib, uning asosiy g'oyasi millatni ma'rifat orqali uyg'otish, ta'limni zamonaviylashtirish va jamiyatni yangilashdan iborat edi. O'zbek jadid mutafakkirlari bu jarayonning bosh yetakchilari sanaladi. Masalan,

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z fa‘oliyatida ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ta‘limni dunyoviylash, o‘qituvchilarni yangi metodika asosida tayyorlash qizlar ta‘limiga e‘tibor berish g‘oyalarini ilgari suradi. Uning fikricha: “Millatning najoti — maktab va ma‘rifatda”. Abdulla Avloniy esa (1878–1934) — o‘zbek jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri, ma‘rifatparvar, pedagog, shoir, dramaturg va jamoat arbobi bo‘lib, uning faoliyati Turkiston ma‘naviy uyg‘onishida beqiyos o‘rin tutadi. Avloniy jadidchilikning barcha yo‘nalishlarida faol ishtirok etib, ayniqsa ta‘lim islohoti, adabiyot, teatr, matbuot, va madaniy-ma‘rifiy ishlar bilan ajralib turadi. Avloniy ta‘lim tarbiyani inson hayoti uchun juda muhim deb bilgan.

Chunonchi: *“Tarbiya biz uchun hayot- yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat -yo falokat masalasidir”* degan fikri hayotning har qanday pallasida isbot bo‘la oladi. Buyuk ma‘rifatparvarning bu so‘zlari o‘z davrida xalqimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa hozirgi jamiyatimizda ham biz uchun shunchalik dolzarbdir. Ishoqxon To‘ra Ibrat — o‘zbek jadidchilik harakatining yirik vakili, ma‘rifatparvar, olim, tilshunos, sayyoh, pedagog va publitsist bo‘lib, uning qilgan ishlari Turkistonning ma‘naviy uyg‘onishida alohida o‘rin tutadi. U ta‘lim, til, matbuot, san‘at, lug‘atchilik, ilm-fan va jamiyatni isloh qilishga qaratilgan keng qamrovli faoliyati bilan mashhur. Ibrat tomonidan faoliyati yo‘lga qo‘yilgan vodiydagi “usuli jadid” maktabi bo‘g‘inlab savod o‘rgatish, geografiya, tarix, hisob kabi dunyoviy fanlarni joriy etish, xarita, globus kabi ko‘rgazmali qurollardan foydalanish orqali ko‘pgina yoshlarning hayotida nuri ziyo taratgan.

Jadidlar islohotlarining eng asosiy yo‘nalishi — ta‘lim tizimini zamon talabiga moslashtirish edi. Ularning asosiy ishlari: yangi usul (usuli jadid) maktablarini ochish unda o‘qitish tovush asosida bo‘lib, saboq tezroq va tushunarli o‘tardi. Dunyo fanlarini o‘quv dasturlariga kiritish matematika, geografiya, tarix, adabiyot, tabiatshunoslik va boshqalar. O‘qituvchilarni yangi

uslubda tayyorlash. O‘quvchilar uchun darslik va qo‘llanmalar yozish (Fitrat, Avloniy, Behbudiy va boshqalar) Ushbu maktablar orqali xalq farzandlarini, Turkiston musulmon jamiyatini savodli, ma‘rifatli, zamonaviy bilimli qilishdan iborat edi. Ta‘limdagi islohotlari orqali jadidlar jamiyatning ma‘rifiy va madaniy saviyasini oshirishga katta e‘tibor berishgan. Ular faqatgina yangi maktab, yangi darsliklar yaratish bilan chegaralanmay, matbuotning rivojlanishida ham katta hissa qo‘shgan. Jumladan, “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston”, “Hurriyat”, “Oyna” kabi gazeta-jurnallarning nashrlarini yo‘lga qo‘yib mahalliy tillarda mavodlarni chop ettirganlar.

Behbudiyning “Tyutor-bu ibratxona” deb keltirilgan fikridan mushohada qilish qiyin emaski jadidlar teatrning rivojiga ham e‘tiborsiz bo‘lmagan. Aynan Behbudiyning “Padarkush” asari orqali o‘zbek dramaturgiya sohasida asos solindi va teatr madaniyati rivojlandi. Chunki xalqni savodli qilish, jadidlarning g‘oyalarini aholiga to‘g‘ri talqin qilish uchun faqatgina maktab va matbuot yetarli emasdi. Shu sabab “Padarkush” orqali savodsizlikning oqibatlari aholining barcha tabaqalari uchun birdek sodda va tushunarli qilib taqdim etildi. Umuman olganda jadidlarning faoliyatida asosiy masala yoshlarning kelajagi, aholini savodli qilish, millatni farovon hayot kechirishi, Vatanni obod qilish kabi g‘oyalardan iborat edi. Shu sababdan jadidlar xotin-qizlarning ham savod o‘rganishini muhim deb bilgan. Zero bilimli Ona -bilimli farzandni tarbiya bera olish ehtimoli kattaroqdir. Bundan tashqari oiladagi tarbiya masalalari ham bevosita ayollarimiz bilan bog‘liqligi barchamizga ma‘lum. O‘ziga xos milliy uyg‘onish g‘oyasini targ‘ib qilish jadidlarning bosh maqsadiga aylangan edi.

Jadidchilik g‘oyalari bugungi kunda turli shakllarda davom etmoqa. Bugun jadidlar boshlab bergan yo‘l davom etmoqda va takomillashtirilmoqda. Ta‘lim muassasalarini modernizatsiya qilish, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, chet tillarini o‘qitishni kuchaytirish, zamonaviy darslik va

ta'lim standartlarini shakllantirish kabi islohotlar ta'lim tizimining rivojlanishiga qaratilgan. Jadidchilikning ta'limdagi ruhi asosan yoshlarni zamonaviy bilimga ega bo'lishi, dunyoqarashi keng bo'lishiga qaratilgan edi. Jadidlarning g'oyasi milliy uyg'onish hozir ham davom etmoqda va bu g'oya va tiklanish O'zbekistonning poydevori sanaladi. Jadidchilarning matbuotda qilgan islohotlari va matbuot erkinligida ko'rsatgan jonbozliklari natijasi sifatida ular boshlab bergan matbuot islohotlari bugungi mustaqil axborot portallari, ochiq jamiyat qurish g'oyalari ko'rinishida davom etmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jadidlarning ta'lim sohasidagi orzularini eslatadi. O'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy darsliklar yaratish, STEAM ta'limi, chet tillarini chuqur o'qitish, o'qituvchilar malakasini oshirish, yoshlarni ilm-fanga jalb etish kabi jarayonlar jadidlarning ilmiy-ma'rifiy islohotlarini amalda davom ettirmoqda. Jadidlarning keng ko'lamli ishlari natijasida xalq orasida ma'rifatga, erkin fikrga va yangilikka ehtiyoj kuchaydi, millatning ijtimoiy-madaniy hayoti sezilarli darajada yangilandi. Jadidlar yaratgan yangicha maktablar, ilg'or o'quv metodlari, matbuot sahifalarida ko'tarilgan islohot g'oyalari, yoshlarni chet elda o'qitish tashabbuslari o'zbek jamiyatining uyg'onishiga yo'l ochdi. Ularning maqsadi shunchaki maktab ochish yoki gazeta chiqarish emas, balki millatni jaholatdan qutqarish, uni taraqqiyot, ilm-fan va ma'rifat bilan qurollantirish edi.

Garchi jadid bobolarimizning ayrim zahmatlari o'z davrida munosib qadrlanmagan bo'lsada, mustaqillik sharofati ila bugun ularning nomlari, mehnatlari, yaratgan asarariyu xalqimizning farovon kelajagi, jamiyat taraqqiyoti uchun targ'ib qilingan g'oyalari qadrlanib yosh avlodga o'rgatilmoqda.

Foydanalangan adabiyotlar

- [1].Islom Karimov „Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz
"T:O‘zbekiston.1999.B.88
- [2].“Birinchi o‘zbek advokati” maqolasi (2019, O‘zbekiston milliy axborot
agentligi) — Xo‘jayevning hayoti va advokat sifatidagi faoliyati haqida.
- [3].Behbudiy M „Muhtaram yoshlarga murojaat " Oyna-1914, 41-son